

О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING XALQARO TASHKILOTLARDAGI TUTGAN O‘RNI

Xolbo‘tayev Jamshid Dilshod og‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika
va psixologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a‘zo bo‘lishi, uning xalqaro hamjamiyatga qo‘shilishidagi muhim bosqichni tashlaganligi, davlatimizning ushbu xalqaro tashkilotdagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi. O‘zbekistonning ushbu xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lishi, avvalo, mamlakatning suvernitetini, xavfsizligini va iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan xalqaro aloqalarni rivojlantirishga yo‘l ochdi.

Kalit so‘zlar: Tashqi aloqa, integratsion rivojlanish, BMT, YXHT, xalqaro tashkilotlar, bozor iqtisodiyoti, do‘stlik va hamkorlik, Ming yillik sammit, global muammolar va yechimlar.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferensiyasi tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va qator ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar ishida faol ishtirok etib kelmoqda. Natijada, mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud barpo yetish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida turgan boshqa dolzarb muammolarni hal etish kabi ishlarning ijboiy yechimlariga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, 1992-yil 2-martda O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarixida birinchi bor jahon hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a‘ziligiga qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning asosli mulohazalari bu nufuzli tashkilot tomonidan inobatga olinib, 1993-yil fevral oyida

Toshkentda BMT vakolatxonasi ta'xis etilib, ish boshladi. Xolid Malik BMTning O'zbekistondagi vakili qilib yuborildi[2].

O'zbekiston 1992-yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi. I. Karimovning 1992-yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etishi, nutq so'zlashi va uning 10-iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borayotganligini ko'rsatadi[1].

O'zbekistonning xalqaro miqyosda tinchliksevar siyosat o'tka-zishi uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. 1993-yil sentabrda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning ishtiroki va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida tanitdi.

O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatiga qabul qilindi. Bo'lg'usi jahon Parlamentining timsoli bo'lmish Parlamentlararo Ittifoqqa kirdi. BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil sentabr oyida o'tgan «Mingyillik sammiti»da xalqaro terrorchilik va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, BMT faoliyati va uning tarkibiy tizimini isloh qilishga doir ko'plab takliflarni bildirdi[4].

Davlatmiz Xalqaro jamoatchilik e'tiborini yana bir bor muammo Orol muammosiga qaratdi. Ta'kidlamoq joizki, Orol dagi vaziyat nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo mamlakatlarining ekologik muammosidir. Shundan kelib chiqqan holda, davlatimiz rahbari BMT ning «Mingyillik sammiti»da ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, ushbu xayrli ishlarga xalqaro tashkilot va donor mamlakatlardan moliyaviy vositalar jalb etish maqsadida BMTning Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha xalqaro dasturi huzurida Orol va Orolbo'yi muammolari kengashini yurg'uzishni taklif qildi.

Shuningdek, O'zbekiston BMTning ko'plab ixtisoslashgan tashkilotlarida ishtirok etib, ularda o'zining manfaatlarini himoya qilish, xalqaro qonunlar va me'yorlarga rioya qilish, inson huquqlarini ta'minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida tajriba almashish imkoniyatlarini qo'lga kiritdi. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida nufuzini oshirdi va uning xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamladi.

O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi bilan mamlakatning tashqi siyosiy va diplomatik imkoniyatlari kengayib, dunyo bilan yanada yaqin aloqalarni o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi. BMTga a'zo bo'lish orqali O'zbekiston, shuningdek, global xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish va tinchlikni saqlash uchun xalqaro tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligini ko'rsatdi

Jamiyat va davlatlar tarixi shuni ko'rsatadiki, biron-bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erishgan emas. Sharq va g'arb mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan "Buyuk Ipak yo'li"ning markazida joylashgan O'zbekiston bir necha asrlardan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida dunyodagi yirik davlatlar bu davlat bilan bilan o'z aloqalarini o'rnatgan va mustahkamlagan. Amir Temurning Fransiya, Angliya, Ispaniya qirollari, o'nlab qo'shni davlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o'sha davrdagi jo'shqin siyosiy, madaniy va tijoriy aloqalardan guvohlik beradi[5].

I. Karimovning 1992-yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etishi, nutq so'zlashi va uning 10-iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borayotganligini ko'rsatadi. O'zbekistonning xalqaro miqyosda tinchliksevar siyosat o'tkazishi uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi[3].

BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan «Mingyillik sammiti»da xalqaro terrorchilik va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, BMT faoliyati va uning

tarkibiy tizimini isloh qilishga doir ko'plab takliflarni bildirdi. Xalqaro jamoatchilik e'tiborini yana bir bor Orol muammosiga qaratdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonning xalqaro maydonda nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) va boshqa tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasi hamda xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etish yuzasidan ilgari surayotgan tashabbuslari jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgani e'tiborga molik[4].

Demak, nafaqat O'zbekiston, balki mintaqamiz – Markaziy Osiyo ham ulkan imkoniyatlar va hamkorlik makoni bo'lib, Sharq va G'arb, Shimol va Janubni bog'lovchi mintaqalararo bog'liqlikning ajralmas va muhim qismiga aylanmoqda. Shularni inobatga olgan holda, xalqaro maydonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar sharoitida mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini ta'minlash, ahil qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlash, yaqin xamkor xorijiy davlatlar hamda mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida milliy manfaatlarni ko'p tomonlama diplomatiyaning samarali vositalari orqali faol ilgari surish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimov F. Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida O'zbekistonning ko'p tomonlama diplomatiyasi. www.uza.uz internet sayti
2. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari. www.gow.uz internet sayti.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000. 123-125-b.
4. Qo'ysinova F. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasida Xalqaro tashkilotlarning roli. Education and innovative research jurnali. 12-son. 2022. 43-46-b.
5. www.wikipedia.org. internet sayti